EVTAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Islamova Moxichexra Bekmurzayevna,
Navoiy davlat universiteti Pedagogika kafedrasi, p.f.f.d.

Maqolada oliy ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlashni evtagogik yondashuv asosida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari nazariy-konseptual jihatdan tahlil qilingan. Evtagogika o‘rganuvchining o‘z ta’lim maqsadi, mazmuni, resurslari, faoliyat strategiyasi va natijalarini belgilashdagi subyektligini kuchaytiruvchi o‘z-o‘zini belgilovchi ta’lim konsepsiyasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, konseptual modellashtirish va ilmiy sintez metodlaridan foydalanildi. Natijada evtagogik ta’lim muhitining tanqidiy fikrlashga ta’sir etuvchi yetti didaktik imkoniyati: o‘quv maqsadini hamkorlikda belgilash, muammoli-izlanish faoliyati, dalillarni verifikatsiya qilish, dialogik ekspertiza, ikki konturli refleksiya, individual-nolinear ta’lim trayektoriyasi hamda bilimni yangi vaziyatga transfer qilish imkoniyatlari tizimlashtirildi. Mualliflik natijasi sifatida “maqsad – dalil – dialog – refleksiya – transfer” didaktik sikli taklif etildi. Ushbu sikl tanqidiy fikrlashni alohida mashqlar to‘plami emas, balki talabaning o‘z o‘qishini boshqarishi, qarorini asoslash va qayta ko‘rib chiqishi bilan bog‘liq yaxlit didaktik jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *evtagogika, tanqidiy fikrlash, didaktik imkoniyat, o‘z-o‘zini belgilovchi ta’lim, talaba agentligi, refleksiya, metakognitsiya, dalillash, transfer, individual ta’lim trayektoriyasi.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭВТАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В статье с теоретико-концептуальных позиций проанализированы дидактические возможности развития критического мышления студентов высших образовательных учреждений на основе эвтагогического подхода. Эвтагогия интерпретируется как концепция самоопределяемого обучения, направленная на усиление субъектной позиции обучающегося в определении целей, содержания, ресурсов, стратегии деятельности и результатов собственного образовательного процесса. В исследовании использованы методы системного анализа, сравнительного анализа, контент-анализа, концептуального моделирования и научного синтеза. В результате систематизированы семь дидактических возможностей эвтагогической образовательной среды, оказывающих влияние на развитие критического мышления: совместное определение образовательных целей, проблемно-поисковая деятельность, верификация аргументов и доказательств, диалогическая экспертиза, двухконтурная рефлексия, индивидуальная нелинейная образовательная траектория, а также перенос знаний в новые ситуации. В качестве авторского результата предложен дидактический цикл «цель – доказательство – диалог – рефлексия – трансфер». Данный цикл позволяет организовать развитие критического мышления не как совокупность отдельных упражнений, а как целостный дидактический процесс, связанный с управлением студентом собственной учебной деятельностью, обоснованием принимаемых решений и их последующим критическим переосмыслением.

Ключевые слова: *эвтагогия, критическое мышление, дидактические возможности, самоопределяемое обучение, агентность студента, рефлексия, метакогниция, аргументация, трансфер, индивидуальная образовательная траектория.*

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING BASED ON THE EUTHAGOGICAL APPROACH

The article theoretically and conceptually analyzes the didactic potential of developing critical thinking in higher education students through a heutagogical approach. Heutagogy is interpreted as a self-determined learning framework that enhances learner agency in defining learning goals, content, resources, action strategies, and outcomes. The study utilized systems analysis, comparative analysis, content analysis, conceptual modeling, and scientific synthesis methods. As a result, seven didactic affordances of the heutagogical learning environment that influence critical thinking were systematized: collaborative goal-setting, problem-based inquiry, verification of evidence, dialogic peer review, double-loop reflection, individualized non-linear learning trajectories, and the transfer of knowledge to new contexts. As an original contribution of the author, a didactic cycle consisting of "goal – evidence – dialogue – reflection – transfer" is proposed. This cycle serves to structure critical thinking not as an isolated set of exercises, but as a holistic didactic process integrated with the student's self-management of learning, justification, and reassessment of decisions.

Keywords: *heutagogy, critical thinking, didactic potential, self-determined learning, student agency, reflection, metacognition, argumentation, transfer, individual learning trajectory.*

Kirish. Raqamli axborot oqimining keskin kengayishi, generativ sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvi va kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish vaziyatlarining murakkablashuvi oliy ta’lim oldiga yangi didaktik vazifani qo‘ymoqda: talaba tayyor bilimni qayta ishlab beruvchi emas, balki axborotni tanlaydigan, uning ishonchliligini tekshiradigan, muqobil pozitsiyalarni solishtiradigan, xulosasini dalillar bilan asoslaydigan va zarur bo‘lganda o‘z qarorini qayta ko‘rib chiqadigan subyekt sifatida shakllanishi lozim. Shu sababli tanqidiy fikrlash bugungi oliy ta’limda faqat umumiy intellektual ko‘nikma emas, balki kasbiy qaror, akademik halollik, ilmiy izlanish va hayot davomida o‘rganishning tayanch mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

P.Fakione rahbarligidagi “Delphi” tadqiqotida tanqidiy fikrlash maqsadga yo‘naltirilgan va o‘zini o‘zi tartibga soluvchi hukm sifatida izohlanib, uning asosiy kognitiv tarkibiga talqin, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘zini o‘zi nazorat qilish kiritilgan. Mazkur yondashuv tanqidiy fikrlashni faqat “tanqid qilish” yoki xatoni topish bilan tenglashtirishning ilmiy jihatdan noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrlovchi talaba masalani tushunadi, dalillar o‘rtasidagi munosabatlarni ochadi, manbaning ishonchliligini baholaydi, alternativ xulosalarni ko‘radi va o‘z fikrlash jarayonini metakognitiv jihatdan nazorat qiladi [7; 36-38 b.].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid empirik tadqiqotlar o‘qitish strategiyasining xarakteri muhimligini ko‘rsatadi. P.Abrami va hammualliflar 341 ta effekt kattaligini qamrab olgan meta-tahlilda dialog, autentik muammolar va murabbiylik elementlari tanqidiy fikrlash rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [8]. Bu xulosa talabaning faqat ma’lumot olishi yetarli emasligini, u fikr yuritish jarayoniga kirishi, dalil yaratishi, boshqalarning qarashlari bilan to‘qnashishi va o‘z xulosasini himoya qilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Biroq an’anaviy didaktik modelda o‘qituvchi maqsadni, o‘quv mazmunini, manbani, topshiriq algoritmini va baholash mezonlarini deyarli to‘liq oldindan belgilaydi. Talabaga beriladigan intellektual erkinlik ko‘pincha belgilangan vazifani bajarish doirasida qoladi. Bu holat tanqidiy fikrlashning eng muhim sharti bo‘lgan epistemik subyektlikni - “nimani o‘rganish kerak?”, “qaysi dalil yetarli?”, “nega aynan shu manbaga ishonish mumkin?”, “mening taxminim qaysi shartlarda noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin?” kabi savollarni mustaqil qo‘yish imkoniyatini cheklaydi.

Evtagogik yondashuv ushbu didaktik ziddiyatni bartaraf etish imkonini beradi. S. Hase va C. Kenyon evtagogikani andragogiyadan keyingi, o‘rganuvchining o‘z o‘qishini belgilash darajasi yanada yuqori bo‘lgan ta’lim modeli sifatida asoslagan [5]. Unda talaba nafaqat qanday o‘rganishni, balki nimani, nima sababdan, qaysi resurslar va qanday natija mezonlari asosida o‘rganishini ham belgilashda ishtirok etadi. L. Blaschke evtagogikaning asosiy belgilariga avtonomiya, kapability, refleksiya, ikki konturli o‘rganish va nochiziqli ta’limni kiritadi [6]. Mazkur belgilar tanqidiy fikrlashning o‘zini o‘zi tartibga solish, dalilni tekshirish, fikrni qayta ko‘rib chiqish va transfer kabi xususiyatlari bilan funksional jihatdan mos keladi.

O‘zbekiston oliy ta’limining normativ-huquqiy rivojlanishi ham talabaning mustaqil ta’lim faoliyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va akademik mustaqillikni kuchaytirish yo‘nalishida shakllanmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonunda mustaqil ta’lim alohida ta’lim olish shakli sifatida qayd etilgan [1]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2]. Davlat OTMlariga akademik mustaqillik berishga oid PQ-60-son qaror esa o‘quv rejalari, dasturlar va ichki sifat mexanizmlarini moslashuvchan shakllantirish uchun institutsional sharoit yaratadi[3].

Milliy pedagogik tadqiqotlarda ham talaba faolligi, mustaqil o‘quv faoliyati, interfaol metodlar, pedagogik jarayonni loyihalash va refleksiv faoliyatning ta’lim natijalariga ta’siri izchil yoritilgan. Jumladan, O‘. Tolipov pedagogik texnologiyada o‘quv faoliyatini faollashtirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni muhim tarkib sifatida ko‘rsatadi[9]. N. Muslimov, M. Usmonboyeva va M. Mirsoliyeva innovatsion ta’lim texnologiyalarida talabaning faol subyektligini, muammoli va interfaol faoliyatini kuchaytiruvchi mexanizmlarga alohida e’tibor qaratadi [10]. D. Ro‘ziyeva, M. Usmonboyeva va Z. Holiqova esa interfaol metodlarning mohiyatini o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, fikr almashish va faol bilish jarayoni bilan bog‘laydi [11]. Evtagogika ushbu milliy didaktik qarashlarni inkor etmaydi, aksincha, ulardagi faollik va mustaqillik tamoyilini talabaning o‘z ta’lim qarorlarini belgilashi darajasiga olib chiqadi.

Mazkur maqolaning maqsadi evtagogik yondashuv asosida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish, ularning mazmuni va mexanizmini ochib berish hamda oliy ta’lim amaliyoti uchun konseptual didaktik siklni taklif etishdan iborat. Tadqiqot

savoli quyidagicha qo‘yildi: evtagogik ta’limning qaysi didaktik xususiyatlari tanqidiy fikrlashning kognitiv, refleksiv va transfer komponentlarini rivojlantirish uchun bevosita pedagogik resurs bo‘la oladi?

Material va metodlar. Tadqiqot nazariy-konseptual dizaynda olib borildi. Empirik tajriba natijalarini sun’iy ravishda modellashtirish o‘rniga, evtagogika va tanqidiy fikrlash bo‘yicha nazariy manbalar, xalqaro meta-tahlillar, O‘zbekiston pedagog olimlarining ta’lim texnologiyalari va mustaqil fikrlashga oid ishlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Bunday dizaynning tanlanishi maqolaning vazifasi samaradorlik koeffitsientini hisoblash emas, balki didaktik imkoniyatlarning ichki mexanizmini ilmiy aniqlashtirish ekanligi bilan izohlanadi.

Manbalarni tahlil qilishda besh mezon qo‘llanildi: 1) o‘rganuvchi agentligi va avtonomiyasi; 2) muammo qo‘yish va izlanish faoliyati; 3) dalillash va axborotni verifikatsiya qilish; 4) refleksiya va o‘zini o‘zi tuzatish; 5) bilimni yangi vaziyatga transfer qilish. Har bir mezon tanqidiy fikrlashning Facione modeli bilan, so‘ng evtagogikaning Hase–Kenyon va Blaschke tomonidan asoslangan tamoyillari bilan funksional jihatdan solishtirildi. Milliy pedagogik manbalar esa mazkur mexanizmlarning O‘zbekiston oliy ta’limi didaktikasi bilan uyg‘unligini aniqlash maqsadida kontent-tahlil qilindi.

Normativ tahlilda O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun[1], PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[2], PQ-60-son qaror va Vazirlar Mahkamasining 824-son qarori bilan bog‘liq kredit-modul tizimi[4] talablari o‘rganildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda talabalarning mustaqil ta’limdagi ulushini oshirish, ta’lim natijalarini aniq belgilash hamda individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-didaktik shart-sharoitlarning yaratilishi evtagogik yondashuvni joriy etish uchun qulay pedagogik asos sifatida baholash mumkin.

Konseptual modellashtirish bosqichida aniqlangan didaktik imkoniyatlar “maqsad – dalil – dialog – refleksiya – transfer” ketma-ketligida birlashtirildi. Bu ketma-ketlik chiziqli algoritm sifatida emas, balki takrorlanuvchi sikl sifatida talqin qilindi: transfer bosqichida yuzaga kelgan yangi muammo navbatdagi o‘quv maqsadini hosil qiladi; refleksiya natijasi esa avvalgi maqsad va mezonlarning o‘zini qayta ko‘rib chiqishga olib kelishi mumkin. Shu jihat evtagogik modelning oddiy mustaqil ta’limdan farqini belgilaydi.

Natijalar. Nazariy tahlil natijasida evtagogik yondashuvning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yetti asosiy didaktik imkoniyati aniqlandi. Ular bir-biridan ajralgan metodlar emas, balki o‘quv maqsadi, mazmuni, topshiriq, kommunikatsiya, resurs va baholashni qayta tashkil etuvchi yagona didaktik tizimning elementlaridir.

1-jadval. Evtagogik yondashuvning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid didaktik imkoniyatlari

Didaktik imkoniyat	Evtagogik mexanizm	Tanqidiy fikrlash komponenti	Amaliy vosita
Maqsadni hamkorlikda belgilash	Talaba muammo va natija mezonlarini tanlashda ishtirok etadi	Muammoni aniqlash, savol qo‘yish, pozitsiya yaratish	learning contract, individual tadqiqot savoli
Muammoli-izlanish faoliyati	Tayyor algoritm o‘rniga ochiq yechimli vazifa	Tahlil, gipoteza, muqobil yechim	case, inquiry, loyiha, autentik muammo
Dalillarni verifikatsiya qilish	Manbani tanlash va ishonchlilik mezonlarini ishlab chiqish	Baholash, dalillash, xulosa chiqarish	manba auditi, dalil xaritasi, fact-check
Dialogik ekspertiza	Tengdosh fikrini tahlil qilish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish	Argumentatsiya, qarshi dalil, tushuntirish	peer review, munozara, sokratik dialog
Ikki konturli refleksiya	Faqat javobni emas, qarorni tug‘dirgan taxmin va mezonlarni qayta ko‘rish	Metakognitsiya, o‘zini o‘zi tuzatish	refleksiv kundalik, post-task memo
Nolinear individual trayektoriya	Resurs va o‘rganish yo‘lini tanlash erkinligi	Mustaqil qaror, epistemik mas’uliyat	choice board, microlearning, ochiq resurslar
Transfer va capability	Bilimni o‘zgargan kontekstda qayta tashkil etish	Qo‘llash, adaptatsiya, integratsiya	yangi vaziyatli topshiriq, professional scenario

Birinchi didaktik imkoniyat - o‘quv maqsadini hamkorlikda belgilash. Tanqidiy fikrlashning boshlanish nuqtasi tayyor savolga javob topish emas, muammoning o‘zini to‘g‘ri qo‘yishdir. Evtagogik modelda o‘qituvchi mavzuni butunlay tashlab qo‘ymaydi; u fan standartlari va kutiladigan natijalar doirasini

saqlagan holda talabaga muammo yo‘nalishi, tadqiqot savoli, foydalaniladigan manbalar va mahsulot shaklini tanlash imkonini beradi. Masalan, “Raqamli texnologiyalarning ta’limga ta’siri” mavzusida barcha talabalarga bir xil referat topshirig‘i berish o‘rniga, har bir talaba muammoni turli nuqtadan: akademik halollik, generativ AI, media savodxonlik yoki baholash ishonchliligi jihatidan aniqlashtirishi mumkin. Bunda talaba savolni toraytirish, asosiy tushunchalarni aniqlash va mezon tanlash orqali tanqidiy fikrlashning muammoni strukturalash bosqichini bajaradi.

Ikkinchi imkoniyat - muammoli-izlanish faoliyatini kuchaytirish. Evtagogik topshiriqning didaktik qiymati uning “javobi noma’lum” ekanida emas, balki yechim yo‘li oldindan to‘liq berilmaganida namoyon bo‘ladi. Talaba ma’lumot yetishmasligini aniqlashi, qo‘shimcha manba izlash strategiyasini ishlab chiqishi, bir nechta yechimni solishtirishi va tanlagan variantining cheklovlarini ko‘rsatishi kerak. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning tahlil, inference va explanation komponentlarini tabiiy vaziyatda faollashtiradi. P.K. Abrami, R.M. Bernard, E. Borokhovski, D.I. Vaddington, K.A.Vade, T. Perssonlar tadqiq etgan autentik muammolar va dialogning ijobiy ta’siri aynan shu didaktik mexanizmni qo‘llab-quvvatlaydi [8; 280-300 – b.].

Uchinchi imkoniyat - dalillarni verifikatsiya qilish madaniyatini shakllantirish. Axborot ko‘pligi sharoitida talabaning asosiy muammosi ma’lumot topa olmaslik emas, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotni farqlashdir. Evtagogik yondashuvda o‘qituvchi yagona majburiy manbani bermasdan, manba tanlash mezonlarini birgalikda ishlab chiqadi: muallif kompetentligi, nashrning ilmiy maqomi, metodning shaffofligi, dalilning tekshiriluvchanligi, manfaatlar to‘qnashuvi va ma’lumotning dolzarbligi. Talaba esa o‘z xulosasining “dalil pasporti”ni yaratadi. Natijada baholash faqat yakuniy javobga emas, xulosaga qanday epistemik yo‘l bilan kelganiga ham qaratiladi.

To‘rtinchi imkoniyat - dialogik ekspertiza. Tanqidiy fikrlash ichki monolog bilangina rivojlanmaydi. Tengdoshning qarshi dalili, savoli yoki muqobil izohi talabaning o‘z xulosasidagi yashirin farazlarni ko‘rishiga yordam beradi. Interfaol metodlar bo‘yicha milliy tadqiqotlarda fikr almashish, hamkorlik va faol ishtirokning didaktik ahamiyati qayd etilgan. Evtagogik muhitda peer review oddiy “bir-birining ishini tekshirish” emas, balki dalil sifatini mezonlar asosida ekspertiza qilish jarayoniga aylanadi. Talaba boshqaning argumentini tahlil qilibgina qolmay, berilgan fikr asosida o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqish yoki asosli ravishda saqlab qolishni o‘rganadi [11; 26-29-b.].

Beshinchi imkoniyat - ikki konturli refleksiya. An’anaviy refleksiyada talaba ko‘pincha “nima o‘rgandim?” yoki “qaysi joyda xato qildim?” degan savolga javob beradi. Evtagogik refleksiya bundan chuqurroq: “men nima uchun aynan shu mezonni tanladim?”, “qaysi farazim xato natijaga olib keldi?”, “agar vaziyat o‘zgarsa, men tanlagan strategiya ishlaydimi?” kabi savollar asosida fikrlashning o‘zini tahlil qiladi. Blaschke ta’kidlagan double-loop learning shundan iboratki, o‘rganuvchi faqat xatti-harakatni emas, uni boshqarib turgan asosiy qarash va qoidalarni ham qayta ko‘radi. Bu didaktik mexanizm tanqidiy fikrlashning self-regulation komponentini bevosita rivojlantiradi [6; 62-68-b.].

Oltinchi imkoniyat - nolinear va individual ta’lim trayektoriyasi. Bir xil maqsadga barcha talabalar bir xil manba va ketma-ketlik orqali yetib borishi shart emas. Evtagogik dizayn talabalarga resurs, ketma-ketlik, hamkorlik shakli va mahsulot turini ma’lum chegaralarda tanlash imkonini beradi. Mazkur erkinlik didaktik anarxiya emas; o‘qituvchi natija mezonlarini aniq belgilaydi, talabalar esa ularga eltuvchi yo‘lni asoslaydi. Bunday sharoitda tanqidiy fikrlash “to‘g‘ri javobni topish”dan “eng maqbul o‘rganish strategiyasini tanlash” darajasiga ko‘tariladi.

Yettinchi imkoniyat - bilim transferi va capabilityni rivojlantirish. Kompetent talaba ma’lum tipdagi topshiriqni bajarishi mumkin; capabilityga ega talaba esa bilimni yangi, noaniq va o‘zgaruvchan sharoitga moslashtira oladi. Shu sababli evtagogik baholashda vazifaning ikkinchi bosqichi bo‘lishi maqsadga muvofiq: avval talaba tanish kontekstda qaror ishlab chiqadi, keyin shartlar o‘zgartiriladi va u o‘z modelini moslashtiradi. Masalan, bir ilmiy maqoladagi dalillarni baholagan talaba keyingi bosqichda ijtimoiy tarmoq posti yoki generativ AI javobining ishonchliligini xuddi shu mezonlar asosida tekshiradi. Shunda bilimning reproduktiv o‘zlashtirilishi emas, funksional ko‘chirilishi tekshiriladi.

Tahlil qilingan imkoniyatlar asosida “maqsad – dalil – dialog – refleksiya – transfer” didaktik sikli taklif etildi. Maqsad bosqichida talaba muammoni aniqlaydi va o‘z o‘quv savolini shakllantiradi; dalil bosqichida manbalarni topadi, saralaydi va verifikatsiya qiladi; dialog bosqichida xulosani tengdosh va o‘qituvchi ekspertizasiga chiqaradi; refleksiya bosqichida nafaqat natijani, balki qo‘llangan mezon va farazlarni qayta baholaydi; transfer bosqichida esa shakllangan strategiyani yangi vaziyatga tatbiq etadi. Yangi vaziyatda paydo bo‘lgan muammo navbatdagi siklning maqsadiga aylanadi. Shuning uchun model spiral shaklda rivojlanadi va talabaning epistemik mustaqilligini bosqichma-bosqich kengaytiradi.

2-jadval. An’anaviy va evtagogik didaktik tashkil etishning qiyosiy tavsifi

Didaktik parametr	An’anaviy tashkil etish	Evtagogik tashkil etish
Maqsad	O‘qituvchi tomonidan to‘liq belgilanadi	Fan natijalari doirasida talaba bilan hamkorlikda aniqlashtiriladi
Manbalar	Asosan tavsiya etilgan adabiyotlar	Talaba tanlaydi, lekin ishonchlilik mezonlari bilan asoslaydi
Topshiriq	Algoritmik yoki oldindan belgilangan	Ochiq yechimli, autentik, izlanishga yo‘naltirilgan
O‘qituvchi roli	Axborot beruvchi va nazorat qiluvchi	Fasilitator, mentor, savol beruvchi va mezonlar moderatori
Baholash	Asosan yakuniy natija	Natija + dalil sifati + refleksiya + transfer
Refleksiya	Xatoni tuzatish	Xato ortidagi taxmin, mezon va strategiyani qayta ko‘rish

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, evtagogikaning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi qiymati alohida “yangi metod” taklif qilishida emas. Uning asosiy didaktik yangiligi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi qaror vakolatlarini qayta taqsimlashdadir. Talabaga tanlov berishning o‘zi tanqidiy fikrlashni avtomatik shakllantirmaydi. Agar tanlov mezonsiz, mas’uliyatsiz va refleksiyasiz amalga oshirilsa, u faqat erkin faoliyatga aylanadi. Shuning uchun evtagogik ta’limda avtonomiya doimo epistemik javobgarlik bilan birga qo‘llanishi zarur: talaba nimani tanlaganini emas, nega aynan shuni tanlaganini dalillay olishi kerak.

Bu nuqtada evtagogik yondashuvni “o‘qituvchisiz o‘rganish” sifatida talqin qilish xato. O‘qituvchi roli kamaymaydi, balki murakkablashadi. U mazmunni to‘liq boshqaruvchi shaxsdan o‘quv dizayneri, mentor, savol beruvchi, fikrlash mezonlarini aniqlashtiruvchi va refleksiyani tashkil etuvchi mutaxassisga aylanadi. O‘qituvchining professional vazifasi talaba o‘rniga qaror qabul qilish emas, talaba sifatli qaror qabul qila oladigan intellektual va didaktik sharoitni qurishdan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston oliy ta’limidagi kredit-modul tizimi bu yondashuv uchun tashkiliy imkoniyat yaratadi, chunki u mustaqil ta’lim, o‘quv natijalarini rejalashtirish va individual trayektoriyaga nisbatan talabni kuchaytiradi. Biroq mustaqil ta’lim soatining ko‘payishi evtagogika degani emas. Agar mustaqil ta’lim faqat referat, konspekt yoki reproduktiv topshiriqlar bilan to‘ldirilsa, didaktik mazmun o‘zgarmaydi. Evtagogik transformatsiya uchun mustaqil ishning o‘zida muammo tanlash, manba verifikatsiyasi, qaror chiqarish, peer review, refleksiya va transfer elementlari bo‘lishi zarur.

Milliy pedagogik an’anada shaxsga yo‘naltirilganlik, interfaollik va mustaqil fikrlashga katta e’tibor berilgani evtagogik modelni mahalliy ta’lim muhitiga moslashtirish uchun metodologik poydevor yaratadi. Masalan, Tolipovning pedagogik jarayonni loyihalash va faoliyatni faollashtirish haqidagi qarashlari, Muslimov va hammualliflarning innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yondashuvlari, Ro‘ziyeva va hammualliflarning interfaol metodlar tizimi evtagogikaning amaliy vositalari bilan tabiiy integratsiyalashadi. Farq shundaki, evtagogika bu metodlarni faqat darsni jonlantirish vositasi sifatida emas, talabaning o‘z o‘quv qarorini ishlab chiqish mexanizmi sifatida qayta tashkil etadi.

Evtagogik ta’limni joriy etishda uchta didaktik xavfni hisobga olish lozim. Birinchisi - tayyorgarlik darajasi yetarli bo‘lmagan talabaga haddan tashqari katta tanlov yukini berish. Bunda “avtonomiya zinapoyasi” tamoyili maqsadga muvofiq: dastlab cheklangan variantlar orasidan tanlov, keyin resurs tanlash, so‘ng muammo va mahsulotni mustaqil belgilash. Ikkinchi xavf - baholash mezonlarining noaniqligi. Erkin trayektoriya umumiy sifat mezonlarini bekor qilmaydi; aksincha, analitik rubrikalar, dalil sifati indikatorlari va refleksiya mezonlari yanada aniq bo‘lishi kerak. Uchinchi xavf - raqamli muhitdagi ma’lumot ko‘pligi. Talaba resurs tanlash vakolatiga ega bo‘lgan sari manba ishonchliligi, akademik halollik va generativ AI natijalarini tekshirish bo‘yicha maxsus didaktik ko‘rsatmalar zarur bo‘ladi.

Shu asosda oliy ta’lim amaliyoti uchun quyidagi didaktik shartlar muhim deb hisoblanadi: o‘quv natijalarining ochiq va tushunarli ifodalanishi; talaba tanlovining bosqichma-bosqich kengaytirilishi; kamida bir autentik muammo; manbalarni tekshirish uchun aniq mezonlar; majburiy peer review yoki dialog bosqichi; refleksiv yozuv; yakuniy topshiriqda yangi kontekstga transfer talabi. Mazkur shartlar birgalikda qo‘llangandagina evtagogika tanqidiy fikrlashni real didaktik mexanizm orqali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan model nazariy-konseptual xarakterga ega va uning samaradorligi alohida eksperimental dizaynda tekshirilishi lozim. Keyingi tadqiqotlarda “maqsad – dalil – dialog – refleksiya – transfer” siklining ta’sirini nazorat va tajriba guruhlarida Facione asosidagi ko‘rsatkichlar, Watson–Glaser yoki moslashtirilgan rubrikalar yordamida aniqlash, shuningdek talaba agentligi va akademik motivatsiya dinamikasi bilan bog‘liqligini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Evtagogik yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik mohiyati talabaga ko‘proq topshiriq berishda emas, uning o‘quv jarayonidagi qaror vakolatini, dalillash mas’uliyatini va refleksiv nazoratini oshirishda namoyon bo‘ladi. Nazariy tahlil natijasida mazkur yondashuvning yetti didaktik imkoniyati: maqsadni hamkorlikda belgilash, muammoli-izlanish faoliyati, dalillarni verifikatsiya qilish, dialogik ekspertiza, ikki konturli refleksiya, nolinear individual trayektoriya hamda bilim transferi tizimlashtirildi.

Taklif etilgan “maqsad – dalil – dialog – refleksiya – transfer” sikli tanqidiy fikrlashni alohida metodlar yoki epizodik mashqlar majmuasi sifatida emas, balki butun o‘quv jarayonini tashkil etish prinsipi sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ushbu modelda talaba savol qo‘yadi, dalil izlaydi, fikrini ekspertizadan o‘tkazadi, o‘z qarorining asoslarini qayta ko‘radi va shakllangan fikrlash strategiyasini yangi vaziyatda qo‘llaydi. Aynan shu siklik jarayon tanqidiy fikrlashning metakognitiv va transfer jihatlarini kuchaytiradi.

O‘zbekiston oliy ta’limida mustaqil ta’lim, kredit-modul tizimi va akademik mustaqillikning kengayishi evtagogik yondashuvni joriy etish uchun zarur institutsional sharoitlarni shakllantirmoqda. Endigi vazifa ushbu tashkiliy imkoniyatlarni didaktik mazmun bilan boyitishdir. Buning uchun mustaqil ishlarni reproduktiv topshiriqlardan ochiq muammolar, manba auditi, peer review, refleksiv tahlil va transfer vazifalariga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Natijada talaba bilim iste’molchisi emas, o‘z bilim faoliyatini boshqaruvchi, qarorlarini tekshiruvchi va yangi vaziyatlarda asosli xulosa chiqara oladigan subyekt sifatida shakllanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5847-son, 2019-yil 8-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-4545884

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-60-son, 2021-yil 24-dekabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-5793261

4. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga 1-ilova // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-5193564

5. Hase S., Kenyon C. From Andragogy to Heutagogy // UltiBASE In-Site. – 2000. – Vol. 5, No. 3. – P. 1–10.

6. Blaschke L.M. Heutagogy and Lifelong Learning: A Review of Heutagogical Practice and Self-Determined Learning // The International Review of Research in Open and Distributed Learning. 2012. Vol. 13, No. 1. P. 56-71.

7. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. Research Findings and Recommendations. – Millbrae, CA: California Academic Press, 1990. – 112 p. – ERIC ED315423. – URL: https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED315423.pdf

8. Abrami P.C., Bernard R.M., Borokhovski E., Waddington D.I., Wade C.A., Persson T. Strategies for Teaching Students to Think Critically: A Meta-Analysis // Review of Educational Research. 2015. Vol. 85, No. 2. P. 275-314.

9. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 276 b.

10. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. – Toshkent, 2016. -147 b.

11. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 b.

12. Olimov Sh., Umarov V. Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish: monografiya. – Toshkent, 2011. – 100 b.